



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/1 (10)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

**TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOVA Galina Karimovna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*  
**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna** – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*  
**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*  
**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*  
**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*  
**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – *tibbiyot fanlari nomzodi.*  
**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*  
**ZIYAYEV Azamad Xamidovich** – *tarix fanlari doktori, professor.*  
**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – *psixologiya fanlari doktori.*  
**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – *доктор социологических наук, профессор.*  
**Сайдова Галина Каримовна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – *доктор психологических наук, профессор.*  
**Абдураманов Хамид Худайbergenovich** (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Бекмуратов Адхам Шарипович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщины и гендерного равенства.*  
**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – *доктор педагогических наук, профессор.*  
**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Сайдов Акмал Холматович** – *доктор юридических наук, профессор.*  
**Якубжанова Дилобар Батировна** – *доктор педагогических наук, доцент.*  
**Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна** – *кандидат медицинских наук.*  
**Умирзаков Баходир Хамидович** – *доктор экономических наук, профессор.*  
**Зияев Азамат Хамидович** – *доктор исторических наук, профессор.*  
**Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли** – *доктор психологических наук.*  
**Туракулов Улугбек Холбутаевич** – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

**THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**  
*(Editor-in-Chief) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

**MEMBERS OF THE EDITING BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*  
**Saidova Galina Karimovna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Shoumarov Ghayrat Bakhramovich** – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*  
**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Marufova Gulnora Makhmudovna** – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*  
**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*  
**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Saidov Akmal Kholmatovich** – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*  
**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*  
**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – *Candidate of Medical sciences.*  
**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – *Doctor of Economic sciences, Professor.*  
**Ziyayev Azamad Khamidovich** – *Doctor of Historical sciences, Professor.*  
**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – *Doctor of Psychological Sciences.*  
**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

**XALQARO TAHRIR HAY'ATI:**

**Doktor Rashmini Koparkar,**  
*Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti*  
*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*  
*Javoharlal Neru universiteti,*  
*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**  
*Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,*  
*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**  
*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*  
*London biznes va moliya maktabi,*  
*Singapur*

**МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Доктор Рашмини Копаркар,**  
*Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,*  
*Школа международных исследований,*  
*Университет Джавахарлала Неру,*  
*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина Иосифовна,**  
*Челябинский государственный институт культуры,*  
*доктор педагогических наук,*  
*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**  
*Руководитель Технологического факультета*  
*Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур*

**INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:**

**Dr. Rashmini Koparkar**  
*Assistant Professor*  
*Centre for Russian and Central Asian Studies*  
*School of International Studies*  
*Jawaharlal Nehru University*  
*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**  
*Chelyabinsk State Institute of Culture*  
*Doctor of Pedagogical Sciences,*  
*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**  
*Head, School of Technology*  
*London School of Business and Finance, Singapore*

*MENEJMENT*

<b>Abdullajanova D.S.</b> Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	4
--	---

*SOTSIOLOGIYA*

<b>Saipova M.</b> Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar .....	10
<b>Xonturayev B.</b> Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari .....	16
<b>Йулдошева У.</b> Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане .....	25
<b>Hashimova G.I.</b> Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari .....	32

*MAHALLA VA HAYOT*

<b>Isamutdinov R.R.</b> Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati .....	37
--	----

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Abdiraimova Sh.A.</b> Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
<b>Rahimova M.</b> Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi .....	49
<b>Dovranova O.D.</b> Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
<b>Mahkamov U.A.</b> So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

*PSIXOLOGIYA*

<b>Рахимова И.И., Каримова Г.О.</b> Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха .....	64
<b>Абидова З.А.</b> Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности .....	69
<b>Ishonkulova N.I.</b> Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....	75
<b>Raxmonova Z.N.</b> Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

*PEDAGOGIKA*

<b>Ortikov U.X.</b> The socio-educational model in second language acquisition.....	86
<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat .....	92
<b>Аблакулов Ш.Д.</b> Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов .....	98
<b>Mirhamidova M.</b> Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari .....	104
<b>Safoyeva R.J.</b> Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
<b>Yakubov O.T.</b> Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari .....	114

*TARIX*

<b>Sharipova N.A.</b> XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----

1.









Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna,

TDTU Qo'qon filiali

e-mail: [nar.kokand@gmail.com](mailto:nar.kokand@gmail.com)

## XX ASRNING 40–90-YILLARIDA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIK MASALALARI TARIXI

**Annotatsiya.** Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati. Hozirgi Yangi O'zbekistonda gender tenglik yuzasidan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Muallif arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar natijalari va davriy nashrlar ma'lumotlaridan foydalangan holda O'zbekiston ta'lim tizimidagi gender tenglik masalalari tarixiga nazar tashlashga harakat qilgan.

**Tayanch so'zlar:** qonun, o'qituvchi, ayollar, ta'lim, institut, respublika, maktab, feodalizm, jamiyat, vazirlik, an'analar.

**Аннотация.** Гендер – это социальный аспект взаимоотношений между женщинами и мужчинами, который проявляется во всех сферах жизни и деятельности общества, включая политику, экономику, право, идеологию и культуру, образование и науку. В Новом Узбекистане проводится ряд практических работ по гендерному равенству. Автор попытался взглянуть на историю вопросов гендерного равенства в системе образования Узбекистана, используя архивные материалы, результаты научных исследований и информацию из периодических изданий.

**Ключевые слова:** закон, учитель, женщины, образование, институт, республика, школа, феодализм, общество, министерство, традиции.

**Annotation.** Gender is a social aspect of relationships between women and men, which manifests itself in all spheres of life and society, including politics, economics, law, ideology and culture, education and science. A number of practical works on gender equality are being carried out in New Uzbekistan. The author tried to look at the history of gender equality issues in the education system of Uzbekistan, using archival materials, results of scientific research and information from periodicals.

**Keywords:** law, teacher, women, education, institute, republic, school, feudalism, society, ministry, traditions.

**Kirish.** O'zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Respublika Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'rvonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tenglik va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, ular faoliyat yuritayotgan sohalarida tizimli o'zgarishlarni ilgari surish uchun, avvalo, jamiyat ongiga singib ketgan stereotiplar va me'yorlardan xalos bo'lish maqsadga muvofiqdir.

**Maqsad va uni asoslash.** Tarixdan ma'lumki, ayollar va erkaklar o'rtasida teng

huquqlilik bo'lmagan. Bu masala olimlar va faylasuflar tomonidan turlicha talqin qilingan va bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Ijtimoiy taraqqiyotning asosini tashkil qilgan o'qituvchilar armiyasining gender tarkibini o'rganish mazkur mavzuning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mavzuga oid tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: Sovet hokimiyati yillarida nashr etilgan adabiyotlar; Mustaqillik davrida O'zbekistonda e'lon qilingan tadqiqotlar; xorij davlatlarida chop etilgan nashrlar. Ammo bu tadqiqotlarda xotin-qizlar mavzusi alohida o'rganilmagan bo'lsa-da, mavzuning ajralmas qismi sifatida qayd etilgan.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, XX asrning 40–90-yillarida ta'lim tizimi holati, shuningdek, gender tenglikni ta'minlash maqsadida olib borilgan islohotlar va ularning natijalari haqida izlanish olib borilgan. Ushbu kasb egalariga nisbatan turli davrlarda qarashlarning o'zgarib borishi, yuqori pog'onadan pastlab borishini solishtirish, qiyoslash usullari orqali yoritishga harakat qilingan.

#### Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

O'zbekistonda XX asrning 20-yillarida amalga oshirilgan "Hujum" harakati natijasida ayollar asta-sekin faollasha boshladilar. Chunki aynan o'sha davrlarda erkaklar Ikkinchi jahon urushiga jalb qilinishi va front ortida ayollar asosiy va hal qiluvchi kuchga aylanishi bu hodisani yanada tezlashtirdi.

Urushdan keyingi yillarda esa erkak kadrlarning yetishmasligi ayollar uchun o'qituvchilik bilan shug'ullanishga ham imkon yaratishi bilan birga ko'proq jismoniy kuch talab qiladigan boshqa kasblarda ishlashga ham majbur qildi.

Ayol o'qituvchilarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yirik o'rta maktablarning xotin-qiz bitiruvchilari maxsus-pedagogik dastur asosida o'qitila boshlandi. 1946-yil respublikaning qator yirik o'rta maktablarining 11-sinflarida o'qituvchi qizlar tayyorlanar edi<sup>1</sup>.

O'qituvchilarning oylik maoshi boshqa kasblarga nisbatan yuqoriligi, ular moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirib borilgani sababli maorif tizimida erkak o'qituvchilar miqdori ham ko'payib bordi.

SSSR Ministrlar Kengashi tomonidan 1948-yil 10-fevralda qabul qilingan "Boshlang'ich, yetti

<sup>1</sup> Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР. – Ташкент: Госучпедиз, 1957. – 98 с.

yillik va o'rta maktab o'qituvchilarining imtiyozlar to'g'risida"gi qaror qishloq o'qituvchilari uchun yengilliklar yaratdi. Jumladan, ularni bepul turar-joy, yoqilg'i va yonilg'i bilan ta'minlash kabi imtiyozlar qishloqlarda o'qituvchilik bilan shug'ullanish istagini bildirganlar sonini ham ko'paytirdi.

Xotin-qizlarni ta'limga qamrash, ularga jamoat ishlarini topshirish bo'yicha jamiyatda juda faol ishlar olib borildi. Qishloq, mahalla, tashkilotlarda fuqarolarga, malaka oshirish institutlarida o'qituvchilarga "Jamiyatda ayollar rolini oshib borishi" mavzusida ma'ruzalar o'qildi<sup>2</sup>.

Buning natijasida o'qituvchilar tarkibida ayollar soni 37 foizdan 42 foizigacha yetdi. 1951–1952-o'quv yilida maktab o'qituvchilarining 19399 nafarini ayollar tashkil qilib, ulardan oliy ma'lumotlilar 2419 nafar, o'qituvchilar institutini bitirganlar esa 3542 nafarni tashkil qilgan<sup>3</sup>. Qolganlari esa o'qituvchilar tayyorlash qisqa kurslarida va pedagogika bilim yurtlarida ta'lim olgan. Biroq jismoniy tarbiya, chizmachilik, mehnat, fizika, matematika va harbiy ta'lim kabi fanlardan dars beruvchilarning asosiy qismini, shuninhddek, rahbarlik lavozimlarida, asosan, erkaklar faoliyat yuritgan.

2-jadval

#### O'sha davrda shahar va qishloqlardagi ayol o'qituvchilar tarkibi<sup>4</sup>:

O'quv yillari	Jami o'qituvchi soni		Shundan ayollar	
	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq
1946–1947	7564	31318	4439	10269
1947–1948	7514	31568	4601	9848
1948–1949	8525	31883	4827	9922
1949–1950	9583	34443	6069	10688
1950–1951	10831	36858	6961	11751
1951–1952	11751	39960	7493	11906
1952–1953	1198	42508	7588	12847
1953–1954	12882	44809	8479	14281
1954–1955	14061	48419	9086	15512
1955–1956	15113	50723	9805	17577
1956–1957	16403	53355	10384	17756
1957–1958	17747	55446	11217	18127
1958–1959	19021	56233	12468	18032

<sup>2</sup> Farg'ona viloyat davlat arxivi, 716-fond, 1-ro'yxat, 33-ish, 28-varaq.

<sup>3</sup> O'zbekiston Milliy Arxivi, R. 94-fond, 7-ro'yxat, 208-ish, 2-varaq.

<sup>4</sup> Кадыров И. Развитие школ УзССР в послевоенный период (1945-1962). – Ташкент: Учитель, 1965. – 28 с.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, yillar o‘tgan sayin ta’limda ayollar ulushi oshib borgan. Respublikadagi o‘nta pedagogika institutlarida 1953–1954-o‘quv yilida 8640 nafar bo‘lg‘usi o‘qituvchilar tahsil olgan bo‘lib, ularning 4640 nafarini ayollar tashkil qilgan. Oltita o‘qituvchilar institutining 2485 nafar talabasidan 975 nafarini ayollar, pedagogika bilim yurtlarining 9335 nafar talabasidan 5825 nafarini, ya’ni 60 foizini ayollar tashkil qilgan<sup>5</sup>.

Ayol pedagoglar tayyorlashni ko‘paytirish maqsadida 1954–1955-o‘quv yilida Qo‘qon shahridagi Ayollar o‘qituvchilar instituti Pedagogika institutiga aylantirilib 200 nafar xotin-qiz o‘qishga qabul qilingan.

Ta’lim sifatini yaxshilash hamda gender tenglikka erishish maqsadida 1954-yil 19-iyulda O‘zbekiston Maorif Ministrligining “Qizlar va o‘g‘il bolalarni birgalikda o‘qitish” haqidagi qarori qabul qilinib<sup>6</sup>, xotin-qizlarni ta’limga qamrash uchun targ‘ibot ishlari kuchaytirilgan. Faol ayollar haqida maqolalar chiqa boshlagan. Davriy nashrlarda qizlarning yoshi maktab yoshidan o‘tib ketib, hatto 9-10 yoshlaridagina maktabga borayotganliklari tanqid qilingan. Bunga otalarning ma’suliyatsizligi, joylardagi xalq ta’limi xodimlarining yetarli darajada ish olib bormayotganliklari sabab qilib ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari, qizlar maktabni bitirgach kasb egallashga harakat qilmasliklari, ular jamiyat hayotida ikkinchi darajali rol o‘ynayotgani o‘sha davr hukumati nazoratida bo‘lgan. 1954-yilda Farg‘ona viloyati Xalq ta’limi boshlig‘i tomonidan qo‘l ostida ishlab turgan xotin-qizlarga nisbatan feodallarcha munosabatda bo‘lganligi, maktablarda qizlarning o‘qishiga sovuqqonlik bilan qaraganligi natijasida Quvasoy tumani Xalq ta’limi boshlig‘i Iskandarov, Quva tumanidan Muinov, Aliyev, Vodildan Qurbonov, Mamajonov, Qurbanov, Kirov tumanidan Nabiye, Kaganovich tumanidan Ahmedov, Frunze tumanidan Nurmatov kabi maktab direktorlari ishdan olingan<sup>7</sup>.

<sup>5</sup> Кадыров И. Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет (1924–1954). – Ташкент: Госучпедиз, 1954. – 8 с.

<sup>6</sup> Andijon viloyat davlat arxivi: 614-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 29-varaq.

<sup>7</sup> Farg‘ona viloyat davlat arxivi: 1125-fond, 5-ro‘yxat, 3-ish, 40-varaq.

Shuningdek, o‘qituvchilar uchun ajratilgan imtiyozlarga qo‘shimcha ravishda ma’naviy jihatdan rag‘batlantirib borish ham yaxshi natija berdi. 1956-yilgacha “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” maqomini olgan umumiy 6370 nafar o‘qituvchining 2228 nafarini ayollar tashkil qildi. 1956–1957-o‘quv yilida eng yaxshi maktab xodimlaridan 1161 kishiga, jumladan, 500 nafar xotin-qizlarga “Respublikada xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvoni berildi<sup>8</sup>.

O‘qituvchilarni taqdirlash va rag‘batlantirish ishlari davom etdi. Respublika bo‘yicha 1957-yilning o‘zida 5420 nafar o‘qituvchi orden va medallar bilan taqdirlangan bo‘lib, ularning 2338 nafarini ayollar tashkil qilgan. Taqdirlanganlar orasida 436 nafari o‘zbek millatiga mansub o‘qituvchi ayollar bo‘lgan<sup>9</sup>.

Respublikada 1956–1957-o‘quv yillarida umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi va rahbar xodimlar umumiy soni 69758 nafardan iborat bo‘lib, ularning 28140 nafarini ayollar tashkil etgan. Ayollar orasida oliy ma’lumotli o‘qituvchilar soni 1955–1956-o‘quv yilida 13406 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, bir yildan keyin bu raqam 16 016 nafarga yetgan. O‘qituvchilar institutini bitirgan ayol o‘qituvchilar 1955–1956-o‘quv yilida 18543, 1956–1957-o‘quv yilida esa 20338 nafarni tashkil etgan. O‘rta pedagogik ma’lumotli ayollar soni esa 22 715 nafardan 24 264 nafarga ortgan<sup>10</sup>.

Shuningdek, jamiyatda ayollar rolining oshib borishiga, ularni qobiliyatlariga ko‘ra mas’uliyatli lavozimlarga qo‘yishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Viloyat Xalq ta’limi bo‘limlarida maktab direktorligiga ayollarning tayinlanishi haqida ma’lumotlar to‘plangan. Masalan, 1958-yilda Farg‘ona viloyatining hozirgi O‘zbekiston tumanida 6 nafar ayol maktab rahbarligiga qo‘yilgan<sup>11</sup>. Ayollar orasida yaxshi targ‘ibot ishlarini olib borgan tuman partiya bo‘limining ishi qoniqarli baholangan. Qo‘qon shahar Xalq ta’limi sohasida ayol rahbarlar juda kamchilikni tashkil etib, 25 nafar maktab direktoridan 2 nafarigina ayol kishi ekanligi tanqid qilingan. Shahar Xalq ta’limi bo‘limi faol ayollar

<sup>8</sup> Кадыров И. Развитие школ УзССР в послевоенный период (1945–1962). – Ташкент: Учитель, 1965. – 22 с.

<sup>9</sup> Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР. – Ташкент: Госучпедиз, 1957. – 98 с.

<sup>10</sup> Ўзбекистон ССР тарихи. IV том. – Тошкент: Фан, 1971 – 304 б.

<sup>11</sup> Farg‘ona viloyat davlat arxivi: PA, 1-fond, 6-ro‘yxat, 242-ish, 9-varaq.

ichidan ma'suliyatli, shu lavozimga loyiqlarini topa olmagan uchun ogohlantirilgan. Maktab ilmiy-uslubiy bo'lim boshliqlarining 2 nafarigina ayollar bo'lgan<sup>12</sup>.

Maorif sohasida ayollar soni oshib borgan. Maorif va madaniyat sohasida ayollar ulushi 1960-yilda 48 foizdan 1969-yilda 52 foizga yetgan<sup>13</sup>. Respublikada 1962–1963-o'quv yilida maktab rahbarlarining 200 nafari ayollar bo'lgan bo'lsa, 1966-yilda ularning soni 317 taga yetgan. Farg'ona va Qo'qon shaharlarida maktablar direktorlari va ilmiy bo'lim mudirlarining 50 foizini ayollar, Quva va Oxunboboyev tumanida 30 foizini ayollar tashkil qilgan<sup>14</sup>.

3-jadval

**Namangan shahar xalq ta'limi sohasida faoliyat olib borayotgan ayollar haqida ma'lumot<sup>15</sup>**

	O'quv yili	Maktab direktorlari	Shundan ayollar	Direktor o'rinbosari	Shundan ayollar	O'qituvchilar	Shundan ayollar
1	1972	48	21	38	20	2183	1192
2	1973	48	23	39	19	2202	1205
3	1974	48	24	37	18	2251	1239

1978-yilda xotin-qizlarning 389 nafari "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoniga sazovor bo'lgan. 250 ayol "SSSR Xalq Maorifi a'lochisi" va 6875 ayol "O'zbekiston SSR Xalq Maorifi a'lochisi" maqomini olgan. 1980-yilda ayollardan 1243 nafari maktab direktori, 3125 nafari direktor o'rinbosari lavozimlarida ishlagan<sup>16</sup>. Pedagogika institutlari talabalarining deyarli 50 foizini xotin-qizlar tashkil qilgan. 1980-yilda o'quv yurtlarini bitirib ish boshlagan o'qituvchi kadrlarning soni 20401 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1990-yilda 24545 nafarga yetgan<sup>17</sup>.

<sup>12</sup> Farg'ona viloyat davlat arxivi: PA, 1-fond, 6-ro'yxat, 248-ish, 13-varaq.

<sup>13</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР ст. сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 213 с.

<sup>14</sup> Farg'ona viloyat davlat arxivi: 1125-fond, 6-ro'yxat, 374-ish, 77-varaq.

<sup>15</sup> Farg'ona viloyat davlat arxivi: 1125-fond, 6-ro'yxat, 374-ish, 54-varaq.

<sup>16</sup> Маорифимиз жонкуярлари // Совет мактаби. – 1978. – № 3 – 13-16 б.

<sup>17</sup> Кувватов Н.Б. Подготовка и воспитание педагогических кадров в Узбекистане: опыт и проблемы (1980–1990 гг); автореф. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 13 с.

O'qituvchi ayollar soni ko'payishi bilan birga ularning shaxsiy hayotida ham o'zgarishlar yuz berdi, ya'ni o'qituvchi qizlarni kelin qilishga bo'lgan talab ham oshdi. Aholining ziyoli qatlamiga mansub bo'lgan holda, ular "madaniyat tarqatuvchilar" sifatida sanala boshladi. Uy tutish va ovqat pishirishdan tortib, to qish uchun konserva mahsulotlari yopishgacha o'qituvchilardan maslahat olinar edi. O'qituvchining kiyinish madaniyati va soch turmaklariga o'quvchi qizlar taqlid qila boshladi.

Biroq shunga qaramay, ba'zi davriy nashrlarda ba'zi mualliflar tomonidan ayollarning o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanishiga salbiy fikrlar ham bildirilgan. "O'qituvchilik o'ta fidokorlikni talab qiladi. O'qituvchilik ayollarga xos kasb deyilmoqda. Xo'sh, nima uchun? Ayollar turmushga chiqadi, uy-ro'zg'or ishlariga shoshadi. Ozigina ishlab tug'ruq ta'tiliga chiqib ketadi. Ta'tildan qaytgach yosh bolasi kasal bo'lib, kasallik varaqasiga chiqadi. Oqibatda ayol o'z ustida ishlashga vaqt topa olmaydi. Bilim darajasi ham shunga yarasha bo'ladi. Darslar uzuq-yuluq bo'lib qoladi. Oqibatda o'quvchi bilimsiz qoladi, jamiyatni rivoji qanday bo'ladi?"<sup>18</sup> degan fikrlar bildirilgan. Lekin o'qituvchi ayollar bilan suhbat jarayonida ular dam olishdan kechib bo'lsa-da, o'z ustida ishlashga vaqt topganliklarini qayd etganlar.

**Yakuniy qism.** O'qituvchilar tarkibini o'rganishning muhim xususiyatlaridan biri – bu ta'limning feminizatsiyalashib borishidir. Feminizatsiyalashuvning bir qator obyektiv sabablari bor edi:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oylik maoshlari o'rta maktab o'qituvchilarining ish haqidan past edi. Direktor yoki ilmiy bo'lim mudirlarining oylik maoshi dars soatiga to'lanadigan pul bilan birgalikda oddiy o'qituvchining ish haqidan deyarli ikki baravar edi.

2. Yosh bolalar bilan ishlash ibtidoiy davrlardan beri ayollar vazifasi bo'lib kelgan, degan tushuncha ustunlik qilardi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, o'qituvchilik o'sha paytlardayoq ayollar kasbiga aylanishga ulgurgan. Ya'ni maktabgacha ta'lim sohasi xodimlarining 99 foizini, maktab sohasining esa 50 foizidan ortig'ini ayollar tashkil qilgan.

<sup>18</sup> Хотамов Ф. Жавобгарлик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986 йил 10 октябр. – 3 б.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 90 foizidan ortig'i ayollar bo'lgan. Harbiy ta'lim, jismoniy tarbiya, chizmachilik kabi fanlardan dars o'tayotgan o'qituvchilar tarkibining 60 foizdan ziyodini esa erkaklar tashkil etgan. Zero, yuqori sinflardagi tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash uchun asosan erkak o'qituvchilar talab qilingan. Lekin 1985–1990-yillarga kelib, respublikada yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, oiladagi moddiy yetishmovchiliklar oqibatida erkaklar maktabni tashlab, boshqa ishlarga o'tib keta boshladi. Oqibatda maktab jamoatchilik ishlari, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish to'lig'icha ayollar zimmasiga yuklatildi.

Hozirda olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq bugungi kunda maktablarda erkak o'qituvchilar ulushi ortib bormoqda. Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda viloyatdagi mavjud 948 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida 50 595 nafar pedagog faoliyat olib bormoqda. Shundan 13 950 nafari yoki 27,5 foizi erkaklardir. 2019-yilda esa 11 515 nafar bo'lgan. Bu ko'rsatkich ikki yilda salkam 2,5 mingga ortgani yaxshi, albatta. Zero, jamiyatning to'laqonli rivojlanishi uchun barcha o'zining sevgan kasbi bilan shug'ullangani ma'qul.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кадыров И. Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет (1924–1954) – Ташкент: Госучпедиз, 1954. – 8 с.
2. Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР. – Ташкент: Госучпедиз, 1957. – 98 с.
3. Кадыров И. Развитие школ УзССР в послевоенный период (1945–1962). – Ташкент: Учитель, 1965. – 22 с.
4. Кувватов Н.Б. Подготовка и воспитание педагогических кадров в Узбекистане: опыт и проблемы (1980–1990 гг): автореф. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 13 с.
5. Ўзбекистон ССР тарихи. IV том. – Тошкент: Фан, 1971 – 304 б.
6. Народное хозяйство Узбекской ССР ст. сборник. – Т., Узбекистан, 1970. – 213 с.
7. Маорифимиз жонқуярлари // Совет мактаби. – 1978. – № 3 – 13-16 б.
8. Хотамов Ф. Жавобгарлик // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1986 йил 10 октябрь. – 3 б.
9. O'zbekiston Milliy arxivi: R. 94-fond, 7-ro'xat, 208-ish, 2-varaq.
10. Andijon viloyat davlat arxivi: 614-fond, 1-ro'xat, 8-ish, 29-varaq.
11. Farg'ona viloyat davlat arxivi: PA, 1-fond, 6-ro'xat, 242-ish, 9-varaq.
12. Farg'ona viloyat davlat arxivi: PA, 1-fond, 6-ro'xat, 248-ish, 13-varaq.
13. Farg'ona viloyat davlat arxivi: 716-fond, 1-ro'xat, 33-ish, 28-varaq.
14. Farg'ona viloyat davlat arxivi: 1125-fond, 5-ro'xat, 3-ish, 40-varaq.
15. Farg'ona viloyat davlat arxivi: 1125-fond, 6-ro'xat, 374-ish, 77-varaq.

“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT,  
GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии  
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli  
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining  
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga  
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun  
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,  
Razzakova N., Sobirova E.,  
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.